



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI
B U Y R U Q

2023-yil “28” mart

58-ShT-son

Toshkent shahri

**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik
vazirligi markaziy apparati boshqaruv
xodimlari hamda hududiy tashkilotlar
rahbarlik lavozimlariga qo‘yiladigan
malaka talablarini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 25-yanvardagi PF-14-son Farmonida Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi zimmasiga yuklatilgan vazifa va topshiriqlarni to‘laqonli va sifatli bajarilishini ta‘minlash, vazirlik Markaziy apparati boshqaruv xodimlari hamda hududiy tashkilotlardagi rahbarlik lavozimlariga malakali kadrlarni saralash va tanlash orqali ish samaradorligini oshirish maqsadida,

B U Y U R A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi (keying o‘rinlarda – vazirlik) markaziy apparati boshqaruv xodimlari hamda hududiy tashkilotlardagi rahbarlik lavozimlariga qo‘yiladigan malaka talablari **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Inson resurslari va kadrlar salohiyatini rivojlantirish bo‘limi (**N. Kadirov**) **hududiy tashkilotlar rahbarlari** bilan birgalikda vazirlik markaziy apparati boshqaruv xodimlari hamda hududiy tashkilotlardagi rahbarlik lavozimlariga kadrlarni ishga qabul qilishda (tayinlashda), ularni tegishli lavozimlarga tavsiya etishda, boshqa lavozimga o‘tkazishda mazkur buyruqning ilovasi bilan tasdiqlangan malaka talablariga qat’iy rioya qilinishini ta‘minlasin va xodimning egallab turgan lavozimiga loyqlik masalasi ko‘rilayotganda (attestatsiya yoki xizmat tekshiruvi xulosasida) inobatga olinsin.

3. Inson resurslari va kadrlar salohiyatini rivojlantirish bo‘limi (**N. Kadirov**) tasdiqlangan malaka talablarini davlat fuqarolik xizmati vakant lavozimlarining yagona ochiq portaliga (vacancy.argos.uz) joylashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirish agentligi bilan doimiy hamkorlik o‘rnatsin.

4. **Axborot texnologiyalarini rivojlantirish va raqamlashtirish bo‘limi** mazkur buyruqning ilovasi bilan tasdiqlangan malaka talablarini vazirlikning rasmiy saytiga joylashtirsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tizimidagi hududiy boshqarmalar va tizimdagi barcha tashkilotlar rahbarlari **bir hafta muddat ichida** o‘zlarining tasarrufidagi har bir lavozimlar bo‘yicha malaka talablarini ishlab chiqsin va vazirlikning Inson resurslari va kadrlar salohiyatini rivojlantirish bo‘limiga taqdim etsin.

6. Kadrlarni saralash, joy-joyiga qo‘yish, ishga qabul qilish (lavozimga tayinlash)da mazkur malaka talablarini rioya etmagan rahbar va mas’ul xodimlarga nisbatan qonunchilikda belgilangan intizomiy jazo choralari qo‘llaniladi.

7. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari N.Xusanov zimmasiga yuklansin.

Vazir



B. Musaev